

MIRZO TURSUNZODA SHE'RYATIDA DO'STLIKNING VASFI

Sodiqjon Ro'zmatov

CHDPU 3-kurs talabasi

Toshmuxammedova Ilmira Suyundikovna

Ilmiy rahbar, CHDPU tyutori

ANNOTATSIYA. *Mirzo Tursunzoda tojik xalqining mahbub va mashhur shoirlaridan hisoblanadi. Tojikistonda qarib hamma uning she'rini biladi va yoddan aytadi. Uning she'r va dostonlari juda ma'noli va hayajonga soluvchidir. Mirzo Tursunzoda 1911- yilda Hisor vodiysining Qaratog' dehasida tug'ilgan. Shoirning ko'p baytlari xalq maqollariyu hikmatlariga aylangan:*

*Xonayi mo on qadar ham dur nest,
/Bizning uyimiz u qadar uzoq emas/
Garchi dar chashmi shummo manzur nest,
/Garchi sizning ko'zingizga ma'qul emas/*

*Az zamin nonrezahoro chida memolam ba chashm
/Yerdan non maydalarini terib ko'zimga surtaman/
Noni garmi mehnatiro dida memolam ba chashm.
/Mehnatdan bo'lgan issiq nonni ko'rib ko'zimga surtaman/*

*Oshyon gar meguzori, dar dili inson guzor
/Agar oshyon quymoqchi bo'lsang, insonning qalbiga quy/
Az rahi mehru vafoyu ahdi bepoyon guzor.
/Mehru vafo yulidan bepoyon ahdni quygin/*

Kalit so'zlar: *bepoyon, ahd, mehr, mehnat, oshyon, qalb, nonrezaho, chashm, inson, xalq, maqol, hikmat.*

Mirzo Tursunzoda komil bir shaxs ediki, xalqlar do'stligini mustahkamlashga

ko'p hissasini qushgan. Uning ijodiyotida uzbek, rus, ukrain va qozoq va boshqa millatlarning do'stlikni ulug'lashini va hamma Sharq mamlakatlarning urtasidagi totuvlikni nazarda tutgan.

"Dustonro gum makun" she'ri shoirning eng yaxshi ijod qilgan she'rlaridan hisoblanadi. Unda shoir insonlarni do'stlik rishtasini ehtiyot qilishni va dunyoda do'stsiz yashashni imkonsiz ish hisoblaydi. Shuningdek, haqiqiy do'stni soxta do'stdan farqlash kerakligini aytib o'tib, o'zining donishmandlik hikmatini beradi.

To tavoni do'stonro gum makun,
/Toki qodir bo'lsang do'stlarni yuqotmagin/

Shoir bu baytda, ta'rif beradiki agar qodir bula olsang, do'stlaringdan voz kechmagin, ularni ardoqlagin, chunki bir kun senga foydasi tegadi.

Do'stoni mehribonro gum makun.
/Mehrubon do'stlarni yuqotmagin/

Bu yerda senga mehribon bo'lgan, seni ardoqlaydigan do'stlarni yuqotmagin deyapti, toki og'ir paytingda sening yoningda tursin.

Dar jahon be do'st budan mushkil ast,
/Jahonda do'stsiz bo'lish qiyindur/

Bu baytda esa hayotda do'stsiz yashash qiyinligini, ko'p ishlarda do'stga muhtoj bo'lishimizni aytib o'tgan, qiyinchilik paytida do'stning borligi foyda beradi.

Mushkil oson kun kasonro gum makun.
/Qiyinchilikni oson qiluvchi kishilarni yuqotmagin/

Bu baytda aytadiki inson hayotda albatta qiyinchilikga duch keladi va shunga binoan u qiyinchiliklarni do'stlar bilan yengib o'tish osonlashadi. Asl do'stlar qiyinchilikda sinaladi. Ularni har tomonlama sinab ko'rish kerak bo'ladi.

Do'stro az do'st, jonam farq kun,
/Do'stni do'stdan, jonim farq qil/

Haqiqiy do'stni soxtasidan ajrat, chunki sening hayotingda har xil do'stlar paydo bo'ladi ularni bir biridan farqlay olish muhim vosita bo'lib bu bilan bir qancha balolardan xalos bo'lish mumkindir, soxta do'st esa balo ofatni kelishiga sabab bo'ladi.

Do'sti payvandi jonro gum makun.

/Jonga bog'langan do'stni yuqotmagin/

Bu baytda esa bir do'stniki inson hayotida paydo bo'lib, u bilan juda yaqin bo'lgan har ishini u bilan muhokama qiladigan ma'no tushunilyapti.

Chashmayi ilhomi mo xalqastu bas,

/Bizning chashmamizning ilhomi, xalq erur bas/

Bizning borligimiz shu xalqdir, shu xalq bilan yashaymiz, rivojlanamiz, o'z ozodligimiz va obodligimizni ta'minlaymiz, ne qiyinchilik va ne muammolar paydo bo'lsa, birgalikda hal qilishga harakat qilamiz.

Xalqi mashhuri jahonro gum makun.

/Janonning mashhur xalqini yuqotmagin/

Bu baytda bu xalqning mashhurligini, bilim salohiyati yuqori darajada ekanligini, o'zining mashhur olimlari, shoirlari va avliyolari bilan butun dunyo odamlarining qalbini zabt etgan.

Zinnati bog' az guli xandon buvad,

/Bog'ning ziynati xandon guldun bo'lur/

Bog'ning ziynati gullar bilan yuqori darajaga kutarilsa, shu gul kabi xandon otib turgan yaqinlarni va do'stlarni ardoqlashni ifodalaydi.

Misli gul xandonlabonro gum makun.

/Gul misoli xandonlablarni yuqotmagin/

Usha gul kabi xandon otib turga odamlarni yuqotmagin, sening qilgan xayrli ishlaring, albatta bir kun o'z foydasini beradi, inson hayotining umri juda qisqa, bu lahzada bizning vazifamiz insoniyligimizni yuqotmasligimizdir.

Do'st oyad, garm dar og'ush gir,

/Do'st kelsa, issiq bag'ringa ol/

Agar do'sting uyinga mehmonga kelsa, yaxshi kutib olgin, hurmatini joyga quygin, yaxshi so'zlardan gapirgin yomon so'zlardan hazar qilgin. Bilki sening har bir aytgan so'zing uchun agar manfiatli bo'lsa ajr bordir.

Rasmi xubi tojikonro gum makun.

Tojiklarning yaxshi urfu odatlarini yuqotmagin/

Tojik xalqining ko'p yillik boy ta'rixini yuqotmagin, uni asrab avayla, qadriga yet, hozirgi kunninga shukronalar ayt, ajdodlarimizdan qolgan ilmiy meroslarni o'rganib hayotga tadbiiq etgin.

Xalqi olam do'st bo mo gashtaast,
/Olam xalqi do'st bo'lgan bizlar bilan/

Butun dunyo qarib bizning xalqimizni taniydi, ajdodlar qoldirgan buyuk ilmiy va madaniy meroslardan ular ham bahramand bo'lishdi.

Vahdati xalqi olamro gum makun.
/Olam xalqining birdamligini yuqotmagin/

Olam halqining bir birlariga do'st bo'lishlari, birgalikda taraqqiyot sari qadam quyishlari va dunyoning tinchligi uchun birgalikda harakat qilishlari juda muhim bir omil hisoblanadi.

REFERENCES

1. Абдуллоев А. Заҳири Форёбӣ. Душанбе, 1974; Адабиёти форс-тоҷик дар нимаи аввали асри 11. Душанбе, 1979.
2. Акбаров Юсуф, Талаби ҳаёт ва қисмати адабиёт. Душанбе, 1977.
3. Амонов Раҷаб, Таърихи адабиёти тоҷик. Душанбе, 1982.